XALQ DEPUTATLARI KATTAQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 19-dekabr VII-3-027-7-96-K/24 Kattaqo‘rg‘on tumani

Tumandagi mavjud ayrim ko‘chalarni nomlash va qonun talablariga muvofiqligi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 2024-yil 25-noyabrdagi 03-08-11285-sonli xati orqali geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida ekspert xulosasi, yig‘ilish bayonlari hamda geografik obektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha tuman komissiyasining hisobotini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining 05-19-01-5448-сонли ekspert xulosasiga asosan tumandagi ayrim ko‘cha nomlarining qonun talablariga muvofiqlashtirilganligi, mazkur qaror loyihasi jamoatchilik muhokamasi portali (regulation.gov.uz) da turganligi hamda tuman adliya bo‘limining 2024-yil 18-dekabrdagi 10-son xulosasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumandagi qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilgan ko‘cha nomlari ilovaga asosan tasdiqlansin.

3. O‘zbekiston Mahallalar uyushmasi tuman bo‘limi (I.Nurmuradov), tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (M.Rasulov), tuman “Yo‘llardan foydalanish” unitar korxonasi (M.Temirov)ga:

-bir oy muddatda tuman mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi ko‘cha nomlari ushbu qaror ilovasiga muvofiq tasdiqlangan ro‘yxat asosida nomlarni o‘rnatish;

-olib borilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni belgilangan muddatda xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyalari muhokamasiga kiritish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman hokimining ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta’minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi J.Sarmanov, Kadastrlar palatasi tuman filiali (F.Ibragimov)ga O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligining ekspertiza komissiyasi tomonidan nomuvofiq va takror ko‘cha nomlari muvofiqlashtirish vazifasi yuklatilsin.

5. “Kattaqo‘rg‘on kecha va bugun” gazetasi tahririyati (O‘.Usmonov), tuman hokimligi axborot xizmati (J.Safarov) ushbu qarorning belgilangan tartibda e’lon qilinishini ham da tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

6. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, aloqa, kommunal xo‘jalik hamda aholiga xizmatlar ko‘rsatish komissiyasi (A.Irgashov), tuman hokimi o‘rinbosari L.Raxmonov va mutasaddi tashkilotlar zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi  TESHAYEV MUXIDDIN XOLIKULOVICH

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on tumani
Kengashining
2024-yil 19-dekabrdagi
VII-3-027-7-96-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Kattaqo‘rg‘on tumanidagi nomsiz ko‘chalarni nomlash bo‘yicha TAKLIFLAR

t/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni (MFY)	Geografik obyektn‘ing hozirgi nomi	Tuman komissiyasi tomonidan berilgan taklif
1.	ko‘cha	Zarqo‘rg‘on MFY	nomsiz	Sangzor
2.	ko‘cha	Zarqo‘rg‘on MFY	nomsiz	Ma’rifat
3.	ko‘cha	Charog‘on MFY	nomsiz	Intizor
4.	ko‘cha	Oyjon MFY	nomsiz	G‘uzor
5.	ko‘cha	Omonboyko‘prik MFY	nomsiz	Ravnaq
6.	ko‘cha	Nisbat MFY	nomsiz	Fazogir
7.	ko‘cha	Nisbat MFY	nomsiz	Yangiqishloq
8.	ko‘cha	Nisbat MFY	nomsiz	Erkparvar
9.	ko‘cha	Qiyot MFY	nomsiz	Kunchiqar
10.	ko‘cha	Qiyot MFY	nomsiz	Yangiqiyot
11.	ko‘cha	Qiyot MFY	nomsiz	Fayzobod
12.	ko‘cha	Qiyot MFY	nomsiz	Ko‘makdosh
13.	ko‘cha	Yakkabog’ MFY	nomsiz	Baqliqchi
14.	tor ko‘cha	Oyjon MFY	nomsiz	G‘uzor-1
15.	tor ko‘cha	Oyjon MFY	nomsiz	G‘uzor-2
16.	tor ko‘cha	Oyjon MFY	nomsiz	G‘uzor-3
17.	tor ko‘cha	Qiyot MFY	nomsiz	Ko‘makdosh-1
18.	tor ko‘cha	Qiyot MFY	nomsiz	Ko‘makdosh-2
19.	tor ko‘cha	Qiyot MFY	nomsiz	Ko‘makdosh-3
20.	tor ko‘cha	Zarqo‘rg‘on MFY	nomsiz	Маърифат
21.	tor ko‘cha	Zarqo‘rg‘on MFY	nomsiz	Sangzor-1
22.	tor ko‘cha	Zarqo‘rg‘on MFY	nomsiz	Sangzor-2
23.	tor ko‘cha	Zarqo‘rg‘on MFY	nomsiz	Sangzor-3
24.	tor ko‘cha	Nisbat MFY	nomsiz	Yangiqishloq-1
25.	tor ko‘cha	Nisbat MFY	nomsiz	Yangiqishloq-2
26.	tor ko‘cha	Nisbat MFY	nomsiz	Yangiqishloq-3
27.	tor ko‘cha	Qiyot MFY	nomsiz	Yangiqiyot-1
28.	tor ko‘cha	Qiyot MFY	nomsiz	Yangiqiyot-2
29.	tor ko‘cha	Qiyot MFY	nomsiz	Yangiqiyot-3
30.	tor ko‘cha	Qiyot MFY	nomsiz	Yangiqiyot-4
31.	tor ko‘cha	Qiyot MFY	nomsiz	Yangiqiyot-5
32.	tor ko‘cha	Qiyot MFY	nomsiz	Yangiqiyot-6

33.	tor ko‘cha	Qiyot MFY	nomsiz	Yangiqiyot-7
34.	tor ko‘cha	Qiyot MFY	nomsiz	Yangiqiyot-8
35.	tor ko‘cha	Qiyot MFY	nomsiz	Yangiqiyot-9
36.	berk ko‘cha	Charog‘on MFY	nomsiz	Intizor
37.	berk ko‘cha	Qiyot MFY	nomsiz	Ko‘makdosh-1
38.	berk ko‘cha	Qiyot MFY	nomsiz	Ko‘makdosh-2
39.	berk ko‘cha	Qiyot MFY	nomsiz	Ko‘makdosh-3
40.	berk ko‘cha	Qiyot MFY	nomsiz	Ko‘makdosh-4
41.	berk ko‘cha	Qiyot MFY	nomsiz	Kunchiqar-1
42.	berk ko‘cha	Qiyot MFY	nomsiz	Kunchiqar-2
43.	berk ko‘cha	Zarqo‘rg‘on MFY	nomsiz	Ma’rifat-1
44.	berk ko‘cha	Zarqo‘rg‘on MFY	nomsiz	Ma’rifat-2
45.	berk ko‘cha	Oyjon MFY	nomsiz	Sariyozko‘l-1
46.	berk ko‘cha	Oyjon MFY	nomsiz	Sariyozko‘l-2
47.	berk ko‘cha	Oyjon MFY	nomsiz	Sariyozko‘l-3
48.	berk ko‘cha	Nisbat MFY	nomsiz	Yangiqishloq-1
49.	berk ko‘cha	Nisbat MFY	nomsiz	Yangiqishloq-2